

UYATNING PRAGMATIK O‘ZIGA XOSLIKLARI

Maxmudova Munira

Andijon davlat universiteti

Lingvistika (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Maqolada uyat modallik elementining o‘ziga xos pragmatik xususiyatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: modallik, pragmatika, kognitiv tilshunoslik, konsept, diskurs, uyat, ekspressiv komponent.

Аннотация: В статье говорится о специфических прагматических особенностях элемента модальности стыда.

Ключевые слова: модальность, прагматика, когнитивная лингвистика, концепт, дискурс, стыд, экспрессивный компонент.

Annotation: The article talks about the specific pragmatic features of the modality element of shame.

Key words: modality, pragmatics, cognitive linguistics, concept, discourse, shame, expressive component.

Kognitiv tilshunoslikning markaziy tushunchalari konsept va diskursdir. Diskurs tabiiy muloqot sharoitida amalga oshiriladi. Shunga ko‘ra, u dialogik yoki interaktiv bo‘lib, xabarni jo‘natuvchi va qabul qiluvchi, so‘zlovchi va tinglovchi, yozuvchi va o‘quvchini o‘z ichiga oladi. So‘zlovchi figurasiga kelsak, diskursni pragmatika nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish tavsiya etiladi.

Pragmatist asosiy e‘tiborni lingvistik ma’lumotlarning tinglovchiga ta’sir qilish mexanizmlariga qaratadi. Bu mexanizmlar nutq aktida ko‘rib chiqilishi mumkin. Nutq aktining mohiyati shundan iboratki, nutq xabari matnning eng muhim xususiyatlaridan birini – uning pragmatik yo‘nalishini, so‘zlovchidan kelib chiqadigan munosabatni ko‘rsatishga imkon beradi¹. Nutq aktining tarkibiy qismlari va uni ishlab chiqarish shartlari baholash funksional-semantik maydonining pragmatik tomonini belgilaydi. Bu jihat semantik va pragmatik ma’lumotlarning o‘zaro bog‘liqligi, til birliklarining tarkibiy-semantik shakliga ta’siri va o‘ziga xos

¹ Кубрякова Е.С. Язык и знание: на пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – С. 513.

xususiyatlari, nutq aktining baholovchi, emotsional va ekspressiv antrokomponentlarining pozitsiyalari bilan bog‘liq¹.

Pragmatik axborot voqelikni u yo‘naltirilgan tinglovchi tomonidan ongli aks ettirish bosqichidan o‘tadi. Emotsional, baholovchi va ekspressiv komponentlarning birligi so‘zlovchi maqsadining muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun ta’sir qiladi. Hissiy fikrlashning aksiologik va irodaviy jihatlari hissiy tafakkurning insonning ijtimoiy mavjudot sifatidagi ehtiyoji bilan dialektik aloqasini – boshqa odamlarning xatti-harakatlarini tartibga solish uchun psixikaning hissiy-irodaviy va intellektual sohalariga ta’sir qilishni – aniqlaydi².

Pragmatika bilan bog‘langan holda, tinglovchiga ma’lum ta’sir o‘tkazish uchun baholovchi nutq akti amalga oshiriladi. Bu maqsadning amalga oshishi, eng avvalo, nutq aktining mazmuniga bog‘liq. Illokutiv aktning tarkibi illokutiv kuchga ega bo‘lib, u N.K. Ryabseva tomonidan bayonotning pragmatik va aynan kommunikativ vaziyat, so‘zlovchi va adresat, ular harakatlarining pragmatik va kommunikativ mazmun bilan bog‘lanib turuvchi integral xarakteristikasi tarzida ta’riflanadi³. Illokutiv kuch so‘zlovchining kommunikativ niyatlarini reallashtiradi. Qulay sharoitlarda baholovchi illokatsion aktning maqsadi amalga oshiriladi, natijada perlokutiv effekt yuzaga keladi. Perlokutiv harakatlar agar hissiy ta’sir rejalashtirilgan bo‘lsa, hissiy holat fe’llari bilan ifodalanadi: g‘ashiga tegmoq, qo‘rqitmoq, zerikmoq, uyaltirmoq va boshqalar⁴. E.M. Volfning so‘zlariga ko‘ra, perlokutiv ta’sir hamda suhbatdoshning hissiy reaksiyasiga yo‘naltirilganlik baholash nutq aktlariga majburiy element sifatida kiritilgan⁵. Perlokutiv maqsadga ega bo‘lgan illokutiv harakatlardan ekspressivlar ajralib turadi. Ekspressivlarga baholovchi sifatida talqin qilinuvchi bayonotlar kiradi: maqtash, ma’qullash, qoralash kabi.

Muloqot jarayonida baho berish hosil bo‘ladi, chunki so‘zlovchi har qanday vaziyatga nisbatan o‘z subyektiv fikrini bildiradi. Nutq vaziyatidagi so‘z (yoki gap) so‘zlovchi / tinglovchining baholariga nisbatan har qanday ma’noga ega bo‘lishi mumkinligiga asoslanib, N.D. Arutyunova baholashga pragmatik xususiyat beradi⁶. Baholash turli kontekstlarda namoyon bo‘lib, so‘zning semantikasida yoki maxsus grammatik qurilish tufayli jumlada namoyon bo‘ladi.

So‘zlovchi biror narsani uyatli deb baholar ekan, suhbatdoshga ota-onasi, do‘stlari, jamiyat va boshqalar oldidagi burchini eslatib o‘tadi. Bunda baholash

¹ Маркелова Т.В. Семантика и прагматика средств выражения оценки в русском языке // Филологические науки. – 1995. – № 3. – С. 68-69.

² Киселева Л.А. Вопросы теории речевого воздействия. – Л.: Ленинградский гос. ун-т, 1978.– С. 41.

³ Рябцева Н.К. Коммуникативный модус и метаречь // Логический анализ языка. Язык речевых действий. – М., 1994. – С. 82-83.

⁴ Lawrence D.H. Sons and Lovers / D. H. Lawrence. – London: Penguin Books, 1995. – P. 203.

⁵ Вольф Е. М. Функциональная семантика оценки. – 2-е изд., доп. – М.: Едиториал УРСС, 2002. – С. 165-166.

⁶ Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт – М.: Наука, 1988. – С. 5.

predmeti muayyan normalarga asoslangan mavjud jamiyatni ifodalovchi “umumiy fikr”, ya’ni stereotip hisoblanadi.

Quyidagi misol uyat konseptining “baholash” subkonsepsiyasini ifodalovchi bayonotlarning modal o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. O‘gli Azizxon to‘yi bo‘layotgan Lutfinisani olib qochib ketganidan buyon Ummatali uyatda qoladi:

*Ummatali ichidan kuyardi. Bolam, bolaginam, nimalar qilib qo‘yding? Yurt oldida yigit boshining egilishi nimaligini bilasanmi, axir. Bu dog‘ Akbaralining ko‘ksida umrbod qolib ketadi-ya?! Seni kechirarmikin?! Bir kun sendan xun olsa, men qandoq chidayman. Ertaga tong otadi, odamlar betimga qaraydi. Shundoq o‘g‘il o‘stirgan otaga la‘nat demaydimi? **Betimga tupurmaydimi?! Bolaginam, meni tiriklay o‘ldirib qo‘yding-ku, murda qilib qo‘yding-ku!***

...Zirillama, Toshloq, Yakkatut, Zarkent faqat shu to‘g‘rida, Azizxon, Lutfinisa, Ummatali, Akbarali degan gap bilan ovora edi.

Samovarda ham, magazinda ham, dalada, shiyponda, chorrahalarda ham faqat shu gap.

“Azizxon Lutfinisani kelinlik libosi bilan devor oshib olib qochibdi”.

*Birov: “Boplabdi, qoyil qipti”, – deydi. Birov “**bu g‘irt ahmoqlik**”, – deydi.”*
(Said Ahmad)

Yuqoridagi misoldan ko‘rinib turibdiki, Ummatali uchun uyat hamda sharmandali deb hisoblangan vaziyat ayrim odamlar ko‘zida oddiy holatdir. Bu esa o‘z navbatida turli vaziyatlarga baho berish insonning o‘z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda yuzaga kelishini yana bir bor isbotlaydi.

O‘zbek tilida biror narsani uyatli deb baholash birliklarini yuqorida ko‘rib chiqdik, ulardan yana *uyat sizga; sharmanda*, shuningdek modal fe‘lli birikmalar bilan: *siz uyalishingiz kerak; siz uyatga qoldingiz* kabilar bilan o‘z ifodasini topishi ham mumkin. “Baholash” sub-konsepsiyasini og‘zaki ifodalovchi ekspressiv so‘zlarning maqsadi suhbatdoshning hissiy holatiga ta’sir qilish va uning xatti-harakatlarini o‘zgartirishdan iborat bo‘lib, so‘zlovchi sodir bo‘lgan vaziyatni axloqiy me’yordan chetga chiqish deb hisoblaydi.

Baholash nutq harakati maqsadga erishish uchun bir necha bosqichlardan o‘tadi. Illokutiv kuchlarning ta’sir mexanizmini tavsiflash uch yo‘nalishda amalga oshiriladi: so‘zlovchi, tinglovchi va interpretator-kuzatuvchi pozitsiyalaridan. So‘zlovchi o‘z gapiga niyat-ta’na qo‘yib, unga ma’lum bir ohang beradi; tinglovchi so‘zlovchining kayfiyatini va kategoriklik darajasini tan olgan holda, haqoratning o‘rinlilikini baholaydi va tahlil qiladi, buning natijasida u kommunikativ xatti-harakatlarning tegishli strategiyasini tanlaydi; interpretator-kuzatuvchi so‘zlovchining

soʻzlarini tahlil qilib, uning niyatlarini tan olgan holda, maqsad qoʻyishdan kelib chiqadigan mos strategiyani ham tanlaydi¹.

Tinglovchi tomonidan soʻzlovchining niyatlarini toʻgʻri baholash bilan nutqni baholash harakatlarida perlokutiv taʼsir qilish imkoniyati paydo boʻladi. Biroq talqin qilish jarayoni turli omillar bilan murakkablashadi. Interpretatsiya umumiy pragmatik va kommunikativ maqsadlar, qadriyatlar iyerarxiyasi, muammoli sohaning tuzilishi, muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy roli va individual psixologik xususiyatlari bilan boshqariladi².

Nutq aktida biror narsani sharmandali deb baholagan holda kerakli perlokautiv effektga erishish uchun soʻzlovchi, birinchi navbatda, eng mos til vositalarini tanlaydi. N.D. Arutyunova adresatni uyatga qoldirishga majbur qiladigan va unda sharmandalik holatini yaratishi mumkin boʻlgan gaplarni: “Uyat! Siz uyalishingiz kerak!” kabilarni nazarda tutadi, ular tarkibida kvazi-performativlik elementi mavjud.

Bilvosita belgilar hissiy holatning oʻzgarishidan dalolat beradi – uyat hissiy holatining tashqi koʻrinishlari, shu jumladan yuzning qizarishi, "uyatli qizarish" deb ataladigan, yaʼni perlokutiv taʼsirning namoyon boʻlishi. Shunday qilib, quyidagi misolda qahramon yigitni beozoriligi uchun haqorat qiladi. Sharmandalik iborasini ishlatib, u oʻz harakatlarining nomaqbulligini anglaydi va sharmandalik tuygʻusini boshdan kechiradi, bu yuzning qizarishi, pastga qarash kabi uyat belgilari bilan tasdiqlanadi:

Tursunboy ikki barmogʻini ogʻziga tiqib hushtak chaldi. Zebixon nima gap, deb orqasiga qaragan edi, Tursunboy uni imlab chaqirdi. Qiz pisand qilmay ketaverdi. Jahli chiqqan Tursunboy yana hushtak chaldi:

– Hoy, menga qara deyapman!

Qiz toʻxtadi.

– Nima deysan?

– Baqqa kel!

– Men itmanmi, nega hushtak chalib chaqirasan? Ishing boʻlsa oʻzing kel!

Tursunboy, “Obbo!” deganicha unga qarab yurdi. Yigitlar Tursunboyni ermak qilib, qah-qah urib kulib yuborishdi.

Ularning biri: “Oʻla, oʻl, oʻsalning qadogʻi necha puldan tushdi?” deb hirlingladi.

Tursunboy ikki qulogʻigacha qizarib Zebixonning oldiga keldi.

– Sharmanda qilding-ku, kela qolsang et-beting kamayib qolarmidi?

¹ Мурясов Р. З. Опыт анализа оценочного высказывания // Вопросы языкознания. – 2004. – № 5. – С. 72.

² Кобозева И.М. Интерпретирующие речевые акты // Логический анализ языка. Язык речевых действий. – М., 1994. – С. 64

Zebixon unga g'azab bilan qaradi. Tursunboy oyoq ustida arang turar, har gandiraklaganida yelkasidagi g'ijim bo'lib ketgan ko'ylagi yerga tushib ketardi. Uni olaman deb ikki marta o'tirib ham qoldi.

– *Meni o'rtoqlarim oldida **sharmanda qilding.***

– *Odamning har nima bo'lgani yaxshi. Sen faqat o'zingni o'ylaysan. Bir pullik manfaating uchun boshqa odamning obro'sini oyoq ostiga olib tepkilashdan ham toymaysan. Bilib turibman. Og'aynilaring bilan garov baylashib meni chaqirding. **Uyalmaysanmi? Vijdoning bormi o'zi?** (Said Ahmad)*

Baholovchi nutq harakatining maqsadini amalga oshirishga so'zlovchilarning ijtimoiy kelib chiqishi ham ta'sir qiladi, ular maqom belgisi (ota-ona – bola, xo'jayin – ishchi va boshqalar) va situatsion bo'lishi mumkin, bir kishi boshqasidan kechirim so'raganida uyat hissini tuyadi, boshqa odamlarga nisbatan esa qo'pol munosabatda bo'laveradi¹. Biror vaziyatni uyatli deb baholagan kishi bu holatni yuzaga keltirgan shaxsga nisbatan o'zini yuqoriroq oladi, shuning uchun ham uyat ijtimoiy kamsitish hisoblanadi. Nutq harakatlari biror narsani sharmandali deb baholash bilan ifodalanadigan aloqaning qulay oqimiga ishtirokchilarning ijtimoiy kelib chiqishi ham ta'sir qiladi. Qoidaga ko'ra, yuqorida turuvchilar (ota-onalar, boshliqlar, o'qituvchilar, mehmon) quyi bo'lganlarni (bolalar, qo'l ostidagilar, talabalar, mezbob) sharmanda qiladilar. Bunday hollarda asosiy e'tibor doimiy ijtimoiy holatga emas, balki situativ holatga qaratiladi:

Aravakash zoti urishqoq, so'kishda birovdan orqada qolmaydigan xalq bo'ladi. Ammo Toshlog'-u Maig'ilonga so'z bermay kelayotgan bu zo'ravonlar Azizxonning oldiga borolmay turganlarini ko'rgan Ummatali ularga ermakomuz qarab qo'ydi.

– ***Uyat-e**, shu yosh boladan kaltak yeb o'tirsalarining. Bu gavda savlat ekan-da.*

U shunday deb o'g'lini turtib-turtib chetga olib chiqdi.

– ***Sening dastingdan biron joyda xotirjam bitta piyolagina choy icha olamanmi, yo'qmi?** He, senga polvonlikni o'rgatgan Hojimuqondan o'rgildim!*

*Azizxon dadasiga **betma-bet kelolmasdi.** Har qanday to'polon qilmasin, har qanday qiliq qilmasin, dadasi ko'ziga qarasa, shashtidan qaytar, **churq etib og'iz ochmasdi.** (Said Ahmad)*

Mehmon Ikromjonga qaradi.

– *O'zlari ham shu kolxozdan bo'ladilarmi?*

– *Shundoq, – dedi Ikromjon.*

¹ Карасик, В. И. Язык социального статуса: монография. – М.: Гнозис, 2002. – С. 143-159.

– Sizlarga qoyilman. Kolxozlaringdan qahramon chiqdi. Butun respublikaga dovuqlaring ketdi. Ertaga gazetani ko'rasizlar, hammasi sizlarga bag'ishlanib chiqadi. Qiziq, biri qahramon, biri qochoq.

Ikromjonning yuragi shuv etib ketdi. Uni kimdir go'yo elektr toki bilan urgandek bo'ldi. Tili gapga kelmay, nimalardir deb g'o'ldiradi. Keyin qizarib ketdi. (Said Ahmad)

Baholovchi nutq aktining muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi yana bir omil jamiyatning turli bo'laklariga mansub bo'lgan so'zlovchi va qabul qiluvchi tomonidan dunyo qadriyatli tasvirining mos kelishidir. Xo'rlangan kishini jamiyat rad etadi, sharmanda bo'lgan odamni uyat dunyodan ajratadi. Jamiyatdan ajralgan holda, nomaqbul xatti-harakat qilgan odam boshqa makonga ko'chib o'tgandek yolg'iz qoladi. Quyidagi misolda ham o'zidan yosh va tajriba jihatdan past deb hisoblagan yigitga kurashda yutqazgan polvonning uyatli holati o'z aksini topgan:

Kurash tugab, hamma har tarafga tarqab ketdi. Esh polvon o'tirgan yerida o'tiraverdi. Yurt oldida shu yaqin orada ikkimarta mulzam bo'lish qaddini bukib qo'ygan edi. Bu tirrancha bola va'dasida turmadi. Otasi tengi odamni oyoq osti qildi. Hech bo'lmaganda, ajrim qilmay belbog'idan qo'lini olganda ham boshqa gap edi.

Esh polvon ko'pchilik orasiga borishga beti chidamay, yo'l chetida qayoqqa borishini bilmay turardi. (Said Ahmad)

Suhbatdoshga to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita murojaat qilishning yuqoridagi usullaridan tashqari, bilvosita nutqiy harakatlar ham mavjud. Ular ham ifodali bo'lib, shakl jihatdan so'roq gaplarni ifodalaydi¹. Bunday gaplarda so'zlovchi suhbatdosh boshidan kechirgan haqiqiy tuyg'u haqida so'rashni maqsad qilmaydi, balki unga hissiy ta'sir ko'rsatishga harakat qiladi. Baholashning bilvosita nutqiy harakatlari baholashning so'roq modalligi va majburiyat modalligi bilan kesishgan joyida paydo bo'ladi:

Akbarali ko'chaga chiqolmay, hovlining u boshidan-bu boshiga so'kinib borib-kelib turardi. Eshikdan kirib kelgan er-xotinni ko'rib bir zum o'zini yo'qotdi. He yo'q, be yo'q, o'dag'aylashga tushdi:

– He, muttahaq bola o'stirgan senlardan o'rgildim. Qani, jo'na, tuyoqlaringni shiqillatib qollaring!

– Hoy, shoshma bolam. O'zingni bos!

– Meni shuncha chiqimdor qilib, el-yurt oldida sharmandamni chiqarib, yana qaysi yuz bilan ostona hatlab keldinglar. Uyat, sharmandalik bu! Sizlarda or degan, nomus degan narsa bormi? Diyonat qani? (Said Ahmad)

¹ Leech G. Principles of Pragmatics. – New York: Longman, 1983. – P. 250.

Uyat pragmatik vaziyat bilan bog‘liq ekan, uning yuzaga kelishida o‘ziga xos qandaydir qo‘zg‘atuvchi harakat ishtirok etishi kerak bo‘ladi, shuningdek, u bilan bog‘liq freym ya‘ni biror bir sistema bor bo‘lishi kerakligi yaqqol holdir. Uyat freymini quyidagi uchta turga ajratishimiz mumkin:

1. Maqsadli, ya‘ni ataylab uyushtirilgan harakat:

So‘zlovchi tinglovchini uyaltiradi → Tinglovchi o‘z aybini anglagan holda uyatga qoladi / Tinglovchi bajargan xatti harakatini xato sifatida baholamaydi va uyat hissini tuymaydi.

Yo‘ldosh ota Azizxonning yosh bolalarcha berayotgan javobidan zavqlanib turardi. Kelib yelkasiga qoqdi.

– *Menga qara, hamqishloq. Akbaralining singlisini to‘y kuni olib qochgan senmasmisan?*

Azizxon indamay boshini egdi. Past ovoz bilan dedi:

– ***Gunohimdan o‘ting. Bir qoshiq qonimdan o‘ting, ota. O‘sha siz aytgan bola menman.***

– *Qiz qayerda? – dedi Oxunboboyev.*

Azizxon ko‘pchilik orasida yuzini yashirib o‘tirgan Lutfinisa tarafga ishora qildi. (Said Ahmad)

2. Bexosdan qilingan harakat:

So‘zlovchi uchinchi shaxsga tinglovchini uyaltiradi → Tinglovchi bu suhbatni to‘satdan eshitib qoladi → Har bir kommunikantda uyat hissi yuzaga keladi.

Deraza tarafga qarab o‘tirgan yigit nimadir deyapti. Ikromjon tarafga qarab o‘tirgan keksaroq kishi unga yuz-ko‘zi bilan qandaydir ishora qildi. Yigit uning ishorasiga tushunmadi, gapini davom ettiraverdi:

– *...Dunyoning ishlari qiziq ekan-da, lekiniga Tog‘a malades, aytmadi. Aytganda Ikrom po‘st tashlavorardi. Bitta-yu bitta bolasi qochoq bo‘lib o‘tirsaya. Voy, mening bolam shunaqa qilsa, shartta kallasini uzib tashlardim...*

Yigit gapini to‘xtatmaganidan diqqati oshib ketgan hamsuhbati jahl bilan:

– *E, qo‘ysang-chi, qanaqa befahm odamsan, — deb o‘rnidan turib ketdi.*

Shundagina yigit o‘girilib orqasiga qaradi-da, Ikromjonni ko‘rib qizarib ketdi, juda katta gunoh qilib qo‘rganini bilib boshini egib o‘tiraverdi. (Said Ahmad)

3. Anglamay qilingan harakat:

So‘zlovchi hech kimni uyaltirishni xohlamay gapiradi → Tinglovchi bu so‘zlarni o‘z assotsiatsiyalari asosida sharmandali deb baholaydi va uyaladi.

Kuyov o‘ttiz beshlarga borib qolgan, ko‘k ko‘z kishi edi. Uning oldida qiz sher qafasiga tashlangan quyondek qaltirardi. Navniholdek gavdasi dadasiga qarab iltijo bilan egilgan, ko‘zlari atrofga madad so‘rab boqardi.

*Bo'layotgan voqealarni alam bilan kuzatib turgan Ummatali bu ishlarga **men gunohkor, degandek chetda, odamlar ko'zi tushmaydigan panada devorga suyanganicha qimirlamay turardi.** (Said Ahmad)*

Shunday qilib, tilda insonning hissiy dunyosiga ta'sir qiluvchi ma'lum formulalar mavjud. Suhbatdoshning vijdoniga va uning axloqiy me'yorlariga murojaat qilish uning xatti-harakatlarini o'zgartirishi mumkin. UYAT konseptini so'z bilan ifodalovchi konstruksiyalar pragmatik xususiyatga ega bo'lganligi sababli, ular illokutiv kuchga ega va shuning uchun so'zlovchi ularga muloqot jarayonida katta ahamiyat beradi.